

TARIX FANINI O'QITISHDA TA'LIM KLASSTERINING O'RNI.

<https://doi.org/10.2961/zenodo.18057369>

Termiz Davlat Pedagogika instituti Tarix kafedrası o'qituvchisi.

Tilavov Qorjov Bekboyevich

Tarix yo'nalishi 2 kurs talabasi **Pardaeyva Sevinch**

Tarix yo'nalishi 2 bosqich talabasi **Komilova Mexribon**

Annatatsiya

Makolada uzluksiz ta'lim tizimida dolzarb ahamiyat kasb etayotgan ta'lim klasterining umumiy qonuniyatlari va tamoyillari asosida tarix fanlarini o'qitishni tashkil kilish buyicha ilmiy muloxaza va farazlar keltirib utilgan. Ayniksa, maktablarda tarix ta'limi buyicha mavjud muammolar taxlili, uni rivojlantirishning uziga xos xususiyatlari, maksad va vazifalari xamda asosiy uslublari, tarix ta'limida formatsion va sivilizatsion yondashuvlar integratsiyasi muximligi asoslab utilgan.

Kalit so'zlar

integratsiya, ta'lim klasteri, uzviylik, fanga oid kompetensiyalar, ta'lim sifati, tizimlashtirish, formatsion yondashuv, sivilizatsion yondashuv, tarixiy tasavvurlar, tushunchalar, tarixiy bilimlarni urganish metodologiyasi

HISTORY TEACHING METHODOLOGY AS A PEDAGOGICAL SUBJECT

Abstract

The article presents scientific considerations and assumptions on the organization of the teaching of history based on the general laws and principles of the education cluster, which is relevant in the system of continuing education. In particular, the analysis of existing problems in the teaching of history in schools, the specific features, goals and objectives and main methods of its development, the importance of the integration of formational and civilizational approaches in the teaching of history.

Keywords

integration, education cluster, membership, science competencies, quality of education, systematization, formative approach, civilizational approach, historical assumptions, concepts, methodology of studying historical knowledge

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ

ПРЕДМЕТ

Аннотatsiя

В статье представлены научные соображения и предположения по организatsии преподавания истории на основе общих закономерностей и принципов образовательного кластера, что актуально в системе непрерывного образования. В частности, анализируются существующие проблемы преподавания истории в школе, особенности, цели и задачи и основные методы ее развития, важность интегрatsии формatsионного и цивилизatsионного подходов в преподавании истории.

Ключевые слова

интегрatsия, образовательный кластер, членство, научные компетенции, качество образования, систематизatsия, формирующий подход, цивилизatsионный подход, исторические предпосылки, концепции, методология изучения исторических знаний.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ijtimoiy fanlarni o'qitish, ularni qay tarzda taksimlash, muxiti va amaliyot integratsiyasini tashkil etishga qaratilgan maxsus konsepsiya ishlab chikish zarur extiyojga aylanib bormokda. Yangi Uzbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" qonun ishlab chikish va uni amaliyotga joriy etish extiyoji xam mavjudligi ta'kidlab o'tildi. Bu yunalishda yurtboshimiz Sh.Mirziyoev tomonidan "2022-2030 yillarda Uzbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim va tarbiya soxasini gumanitarlashtirish strategiyasi" yaratilishi va amalga oshirilishi tavsiya etildi. Yangi Uzbekistonning 2022-2026 yillarga muljallangan taraqqiyot strategiyasining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu soxani tubdan islox qilish va yangi bosqichga olib chiqish" yunalishida "Uzbekiston tarixini urganish va targ'ib kilishni rivojlantirish" vazifasi belgilangan. Sunggi yillarda dunyoning kuplab mamlakatlarida umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilari ta'lim va tarbiyasi sifatini oshirishning eng samarali yullari buyicha ilmiy va ijodiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta'lim jarayonlarini uslubiy jixatdan takomillashtirish o'qituvchilarning uz faoliyatini, kompetentligini yanada rivojlantirishni talab etadi.

Uzluksiz ta'lim jarayoni ilmiy-pedagogik tamoyillarga amal qilgandagina o'z oldiga quygan murakkab muammolarni yecha oladi. Ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilib, dars samaradorligini oshirish uchun esa, eng muxim, xal

qiluvchi axamiyatga ega tamoyillarni belgilagan xolda unga quyiladigan talablarni bajarmoq zarur. Bu talablar ta'lim -tarbiyaning davr talabiga mosligi, pedagogik jarayonda ob'ektiv va sub'ektiv jarayonlarning uyg'unligi, ta'lim-tarbiyada maqsad, mazmun, metod va vositalarning bir-biri bilan mofliq kabi ta'lim klasterining umumiy qonuniyatlari xamda tamoyillaridan foydalanib amalga oshiriladi. Bu kabi talablarni aniqlash uchun tarix ta'limning uziga xos xususiyatlarini xisobga olish lozim. Tarix fanlarini o'qitishda umumta'lim maktablarida xamkorlikdagi ta'lim klasterlarini tashkil qilish eng samarali mexanizm bo'lib, bunda oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining uzaro teng huquqli xamkorligi asosidagi ta'lim turlari integratsiyasi xamda tarix fanlarini o'qitishda uzviylik va izchillikni ta'minlashga asoslangan ta'lim mazmuni integratsiyasi muhim bo'lib, bu integratsiyalar ta'lim samaradorligini oshirishda dolzarb axamiyatga egadir.

Adabiyotlar taxlili va metodologiyasi

Uzluksiz ta'limda tarix fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish buyicha, xususan, bulajak tarix o'qituvchilarining uquvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash va uslubiy tayyorgarlik ishlari O.Davlatov, A.Ismoilov, K.Shonazarov, R.Yarmatov va boshka olimlar ishlarida keltirib utilgan. Respublikamiz maktablarida tarix o'qitish metodikasiga batavsil ishlar ilmiy tadqiqotlar va uslubiy qullanmalar tashkil etilgan. Umumiy o'rta ta'limda tarix fanlarini o'qitish va bu jarayonlarni takomillashtirish bilan bog'liq bir qator ishlar aloxida axamiyatga ega. Tarix fanlarini o'qitishda, bulajak mutaxassisni uzviylikda ta'minlashda va samaradorlikni oshirishda uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim klasterlarini tashkil qilish eng samarali mexanizm sanaladi. Bunda tarix fanlarini o'qitish metodikalarini takomillashtirish va bu soxada bulajak pedagog-kadrlar tayyorlashda ta'lim muassasalarining uzaro teng xuquqli xamkorligi asosidagi ta'lim turlari integratsiyasi xamda fanlararo, kurslar va bulimlararo uzviylikni ta'minlashga asoslangan ta'lim integratsiyasi muxim hisoblanadi. Ta'lim klasterining uziga xos xususiyatiga ko'ra, maktablarda olib boriladigan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonning xar bir daqiqasidan unumli foydalanish talab etiladi, bundan kelib chikib tarix o'qituvchilari Og'zaki usulidan voz kechgan xolda tarix fanlarini integratsion asosda o'qitishga, axborot texnologiyalari asosida mustaqil urganishga urgatish katta axamiyatga ega. Tarix ta'limidagi darsliklar, xaritalar, xujjatlar, jadval, tushunchalar, turli xil qullanmalar shu jumladan davriy nashrlar va boshka manbalar bilan mustaqil ishlashga urgatish talab etiladi. O'qituvchi o'quvchi bilan birgalikda jadvallar, diagrammalar, xaritalar, illyustratsiyalar tayyorlash ish tizimini tashkil kilishi zarur. Og'zaki o'qitish usullari bilan

shug'ullanishdan voz kechish; o'qituvchilar faoliyatini rivojlantirish; ish usullarida yosh xususiyatlarini hisobga olish; olingan bilimlarni amaliyotda qullay olishga e'tibor qaratish va xokazo. Maktablar uchun nashr kilinadigan yangi avlod adabiyotlari urgangan materiallarni mustaxkamlash, nazariya va tushunchalarni ijodiy uzlashtirish va ularni anik xayotiy vaziyatlarni xal kilishda kullash imkonini beruvchi mustakil ish va uz-uzini nazorat kilish materiallari bilan takomillashtirilishi tarix fanlariga oid kompetensiyalarni rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek ular elektron ta'lim resurslari va modullarga bo'Flangan bulishi ta'lim olishda ma'lumotlar xajmini oshishiga va ularni doimiy tuldirib borilishiga yordam beradi.

XULOSA

Shunday qilib, tarixiy bilimlar, tarixiy tasavurlar, tushunchalar, tarixiy taraqqiyot namunalari va tarixiy material bilan ishlash usullarining murakkab uzaro integratsiyasi tarix ta'limining muvaffaqiyatli faoliyatiga yordam beradi. Bunda oliy ta'lim va maktab urtasidagi munosabatlarni uzida aks ettiruvchi modellar, jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarni (sinflarni) tashkil qilish, yukori sinf o'quvchilarini oliy ta'limga tayyorlash va boshkalar samarali usullar xisoblanadi. Biroq bu kabi modellarning aksariyati ularning bir yoqlama ish olib borishlarida , unga kura maktablar buyurtmachi, oliy ta'lim esa ijrochi sifatida ishlaydi. Xamkorlik (o'zaro munosabat)ning asosi quyilgan vazifani barcha ishtirokchilarning birgalikda xal kilishlari, bu borada ularning mavkeyidagi tenglik, shuningdek, barcha sub'ektlar sa'yi xarakatlarining boshka sub'ektlarning qizikishlari va extiyojlari bilan uyg'un kelishi[8] inobatga olinmaydi. Tarix ta'limiga nisbatan klaster yondashuvi muassasa boshkaruv organlariga tizim ichida samarali uzaro ta'sir utkazish uchun muayyan vositalar bilan ta'minlash, muammolarni yaxshirok tutunit, mintakada tarix fanlarini samarali o'qitishni rivojlantirishning ilmiy asoslarini rejalashtirish imkonini beradi[9]. Bularning barchasi ta'lim klasterining katta ilmiy - amaliy axamiyatga ega xodisa ekanligi xaqidagi fikrlarni tasdiklaydi, bu tizim integratsiyalashuv orkali yangi sinergetik sifatga erishish imkonini beradi. Ta'lim klasteri tizimning tarixiy bilimlarga bulgan rakobatbardoshlikni ta'minlovchi muxit va shart-sharoitni yaratgan xolda, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy axamiyati ortib boradi. Bu jarayondagi butun tadbirlar majmui ilmiy va kasbiy kadrlarni tayyorlashning asosiy poydevori bulgan ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Bundan tashqari, bulajak tarix fanlari uqituvchisining uzviylikda va tizimli ta'lim olish davrida nafaqat uz kasbi bilan bog'liq bajariladigan amaliy vazifalarni, balki ijtimoiy va amaliy tajribaga xam e'tibor karatiladi. Bu keyinchalik unga ta'lim muassasasining amaliyoti va korporativ

muxitiga muvaffakiyatli kushilishiga va ijtimoiy xamda ishlab chiqarish moslashuvini osonlik bilan utkazishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mirziyoev Sh.M. Yangi Uzbekistan strategiyasi. Toshkent. "Uzbekistan", 2021. -B. 233.
- 2.Davlatov O.F. Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish: Avtoref. ped.fan.buyicha fals.dok. - Toshkent, 2018. - 57 b.
- 3.Uzbekistan Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillargamuljallangan Yangi Uzbekistonning tarakkiyot strategiyasi tuFrisida"gi PF- 60-son Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. <https://t.me/YangiTaraqqiyotStrategiyasi>
- 4.Toshtemirova, S., & Turaeva, A. (2021). Tarix fanlarini kurslararo uzviylik asosida amalga oshirishga kuyiladigan talablar. Academic research in educational sciences, 2(5), 894-906.
- 5.Toshpulatov T., Fafforov Ya. Tarix ukitish metodikasi. T.Turon-Ikbol, 2010 y.